Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · “Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini t... DOI: 10.5281/zenodo.24320759

ta’minlashning ustivor yo‘nalishlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

33	9-участка	751	21,99	21,99	112470	51,15
34	9-участка	769	10,76	10,76	28730	26,70
35	9-участка	754	15,3	15,3	63500	41,5
ЖАМИ				84,09	391450	46,55
36	10-участка	553	17,37	17,37	86880	50,02
37	10-участка	552	8,32	8,32	31390	37,73
38	10-участка	546	26,78	26,78	123370	46,07
39	10-участка	604	7,37	7,37	27190	36,89
40	10-участка	605	7,78	7,78	14450	18,57
41	10-участка	600	23,83	23,83	124990	52,45
ЖАМИ				91,45	408270	44,64
				806,81	4127680	

Шу ўринда Қашқадарё вилояти мисолида баъзи бир ҳолатларга алоҳида эътибор қаратиш лозим. Амалга оширилган тадқиқотлар натижасида, бешта пахта-тўқимачилик кластерлари ва битта пахтачилик кооперацияси мавжудлиги аниқланди. Уларга жами 78,1 минг гектар пахта майдонининг 6,2 гектари бевосита кластерларнинг ўзига, қолган 71,9 минг гектари фермер хўжаликлари билан фючерс шартномаси асосида ажратиб берилган.

Хулоса қилиб айтганда, Мамлакатимизда амалга оширилаётган ислоҳотлар мавжуд салоҳиятни тўлақонли ривожлантириш, қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ва бутун агросаноат комплексининг рақобат бардошлигини оширишга қаратилган.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сон фармони Абдуғаниев А.А. Бошқарув ҳисобини ташкил этиш муаммолари, уларнинг ечимлари. Монография. – Т.: ТМИ, 2003. – 275 б.

[2] Ануфриев В.Е.Ореформировании российской системы бухгалтерского учета и отчетности//Бухгалтерский учет. - 2002. №8. - С.19

[3] Блаженкова Н.М. Формирование подсистемы стратегического управленческого учета на промышленном предприятии. Автореф. дисс. к.э.н. – Ижевск: 2004 - 19 с.

QISHLOQ JOYLARDA MEHNAT RESURS SALOHIYATIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASPEKTLARI

Published: 23.12.2024

Cite this article: Tursunpo‘latov Farxodjon Xoshimjon o‘g‘li (2024). Qishloq joylarda mehnat resurs salohiyatidan foydalanishning nazariy-metodologik aspektlari. Emro Science and Education, 1(4). https://doi.org/10.5281/zenodo.24320759

© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Tursunpo‘latov Farxodjon Xoshimjon o‘g‘li
Urganch davlat universiteti, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimiz mehnat resurslarini boshqarishning nazariy jihatlari, qishloq aholisining mehnatda bandligi va ishsizlik darajasi, mehnat bozorini tartibga solish xususiyatlari, malakali kadrlarni shakllantirish, mamlakatda bandlik siyosatini shakllantirish jarayoni bosqichlari va olib borilgan tahlillar asosida xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish va amalga oshirish yo‘llari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: strategiya, bandlik, mehnat resurslari, mehnat sarfi, mehnat bozori, bandlik siyosati, ishsizlik darajasi, eksport, kichik biznes, investitsiya.

Zamonaviy dunyo iqtisodiy rivojlanishining voqeliklari shuni ko‘rsatadiki, dunyoda o‘z aholisi uchun munosib mehnat sharoitini yaratishni va ish bilan ta’minlashni asosiy strategik rivojlanish dasturi markaziga qo‘ymaydigan davlatning o‘zi yo‘q. Ayniqsa, zamonaviy sharoitda muayyan darajadagi bandlikni doimiy ravishda saqlab turish oson emas. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan bandlikka ko‘maklashish va mehnat sharoitlarini yaratish masalalariga ham alohida e’tibor qaratilmoqda.

Mehnat resurslarini takror ishlab chiqarishning muhim bosqichi – bu ulardan samarali foydalanishdir. Mehnat resurslaridan foydalanish ishlab chiqarish jarayonida mehnat sarfini nazarda tutadi va ulardan foydalanish vaqtida muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifani bajaradi. Mehnat resurslaridan foydalanish tovar yoki mahsulot ishlab chiqarish va yaratish imkonini beradi hamda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo‘lgan mahsulotlar va xizmatlar yaratadi. Mehnat sarfi natijasida esa mehnat resurslarining mehnat qobiliyati (bilim, ko‘nikma va malaka) rivojlanadi, mehnat bozorining faolligi ortadi. Tadqiqotning maqsadi ham O‘zbekistonda mehnat bozorining rivojlanish holati, bandlik tendensiyalarini aniqlash, aholi va ularning mehnat munosabatlariga oid eng muhim fikrlarni ta’kidlash, iqtisodiy barqarorlikning o‘zgarishida demografik va ish o‘rinlarini yaratish kabi omillarni zamonaviy tahlil qilishdir.

Bandlik – bu mamlakat aholisining turmush darajasi va sifatini tavsiflovchi ko‘rsatkichdir. Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda aholining samarali bandligini ta’minlash muhim o‘rin tutadi. Mamlakatda bandlik siyosatini shakllantirish jarayoni to‘rt bosqichda amalga oshiriladi:

- Bandlik bilan bog‘liq amaldagi qonun hujjatlarini takomillashtirish va yangilarini ishlab chiqish hamda hujjatlar, ish o‘rinlari yaratish bo‘yicha hududiy dasturlar, strategik qarorlar qabul qilish;
- Respublika miqyosidagi har bir tumanlar miqyosida tashkil etilgan ish o‘rinlarining manzilli ro‘yxatlarini ishlab chiqish va zamonaviy bozorga mos keladigan yangi ish o‘rinlarini yaratish uchun zarur bo‘lgan resurslar, shuningdek, hududiy dasturlarni amalga oshirish;
- Aholini ish bilan ta’minlash bo‘yicha respublikaning barcha hududlari, tarmoqlari va korxonalari sharoitida dasturlarning bajarilishini monitoring qilish;
- Hududlar bo‘yicha bandlik dasturlarining tasdiqlangan ko‘rsatkichlarini qayta ko‘rib chiqish va keyingi bir necha yillar davomida ish o‘rinlarini yaratish bo‘yicha prognoz ko‘rsatkichlarini amalga oshirish jarayonini manzilli ishlab chiqishdan iborat. Yuqorida keltirilgan tahlillar bizga xulosa va tavsiyalar chiqarishga imkon beradi va uning asosiy mazmuni quyidagicha ifodalanadi:

1. Mehnat bozori milliylikning muhim elementi ekanligini hisobga olib, zamonaviy iqtisodiy bozorda demografik omil tadqiqot ahamiyatini belgilaydigan muhim ko‘rsatkichdir. Aholining bandlik holati va ijtimoiy-demografik xususiyatlar

jamoatchilikni davlatning bugungi iqtisodiy siyosatidan qoniqishining muhim omili hisoblanadi.

2. Hozirgi kunda respublikada bandlikni tartibga solishda yaratilgan mehnat organlarining tashkiliy tuzilmasi, davlatning normativ-huquqiy bazasi, mehnat statistikasi va davlat xizmatini butun tizimda uslubiy ta’minlash muhim belgi bo‘lib xizmat qiladi.

3. Respublikada mavsumiy, vaqtincha va bir martalik ish bilan ta’minlangan fuqarolarning mehnat faoliyatini samarali tashkil etish, bu borada manfaatdor vazirliklar, idoralar, tashkilotlar, bandlikka ko‘maklashish markazlari quyidagi yo‘nalishlarga e’tibor qaratishi lozim:

- vaqtinchalik ish bilan ta’minlangan fuqarolarga ko‘rsatiladigan davlat xizmatlarini kengaytirish, shu jumladan, yangi ish o‘rinlari va ish beruvchilarni topishga ko‘maklashish, ayniqsa, qishloq joylarda yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyati uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;
- vaqtinchalik ish bilan ta’minlangan fuqarolarning mehnat huquqlari va mehnatini muhofaza qilishdagi tashkiliy ishlarining qonuniy bajarilishi;
- vaqtinchalik ishlarni tashkil etish va muvofiqlashtirish jarayonlariga xo‘jalik yurituvchi subyektlarni davlat-xususiy sherikligi asosida keng jalb etish va boshqalar.

4. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ishsizlik iqtisodiyot uchun tabiiy hodisadir. Mamlakatda ishsizlik darajasini tahlil qilish natijasida O‘zbekiston Respublikasining barcha hududlarida pasayish tendensiyasini aniqlash imkonini berdi. Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, mamlakatimizda 2023-yil yakuniga ko‘ra ishsizlik darajasi 6,8 % ni tashkil etib, avvalgi yilning mos davriga nisbatan 2,1 % ga kamaydi. 2024-yilning 1-yanvar holatiga mehnat resurslari soni 19 million 724 ming 900 kishini tashkil etib, 2023-yilning shu davriga nisbatan 207 ming 400 kishiga (1,1 % ga) oshgan.

5. Biroq, O‘zbekistonda mehnat bozori va bandlik tendensiyalari tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, mehnat bozorini rivojlantirish sohasidagi uzoq muddatli davlat siyosatini yanada rivojlantirish, mavjud huquqiy, iqtisodiy va institutsional asoslarni takomillashtirish va ularning mehnat bozorida samarali faoliyat yuritishini ta’minlaydigan sharoitlar yaratishda kamchiliklar bartaraf etishda oqsoqliklar ketmoqda.

Bu kabi kamchiliklarga yechimlarni taqdim etish orqali quyidagi vazifalarga erishish mumkin:

- ✓ mehnat bozorining zamonaviy iqtisodiyotga moslashuvchanligini kuchaytirish va noqonuniy faoliyatni qisqartirishni rag‘batlantirish, bandlikni ta’minlash va yaratilayotgan tovar va mahsulotlarni eksportini oshirish, eksport tovarlarini doimiy ravishda taqdimot qilib borish, marketing strategiyasini kuchaytirish, eksport tovarlar geografiyasini kengaytirish;
- ✓ kadrlar sifatini oshirish va uning kasbiy malakasini oshirish va takomillashtirish orqali barcha darajadagi bo‘g‘inlarda uzluksiz kasbiy tizimni rivojlantirish, kasbiy tayyorgarlik va qayta tayyorlash tizimlarini yo‘lga qo‘yish, qo‘shimcha qiymat bozorlarini o‘rganish orqali, inson resurslarini takomillashtirish va ularning qo‘shimcha qiymat zanjiri hosil qiladigan mahsulotlar yaratishini rag‘batlantirish, mahsulotlarni chuqur qayta ishlash tizimini ko‘rib chiqish;
- ✓ aholining an’anaviy dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik kabi sohalardagi mehnat qobiliyatini saqlab qolish imkonini beruvchi zamonaviy mehnat sharoitlarini ishlab chiqish, kasbiy faoliyati davomida tajribalarni boyitish orqali mahsulot assortimentini kengaytirish va hunarmandchilik maktablarini rivojlantirish (masalan, paxta yetishtirish va uni qayta ishlash jarayonida tekstil mahsulotlarini turi va dizaynini doimiy yangilab borish va eksport qilish);

- ✓ mehnat bozori institutlarini takomillashtirish, bandlikni oshirish va mehnatdan samarali foydalanish, hududiy mehnat taqsimotini rivojlantirish va mehnat resurslarini qayta taqsimlash;
- ✓ qishloq joylardagi dehqon xo‘jaliklarini kooperatsiyalarga birlashtirish orqali, hududlarni monomahsulotlarga ixtisoslashtirish, xorijiy importyorlarning mo‘tadil ravishda bir xil va katta hajmda eksport mahsulotlariga bo‘lgan talabini ta’minlash;
- ✓ qo‘shimcha qiymat hosil qiladigan kichik biznes va tadbirkorlik subyektlariga investitsiyalar hajmini oshirish;
- ✓ qishloq joylarni “qishloq mahsuloti”ga ixtisoslashtirish orqali yirik plantatsiyalarni tashkil qilish, bu sohada ilmiy salohiyat va xorijiy tajribani doimiy o‘rganib borish va amaliy tajribalarni joriy qilish jarayonlarini tezlashtirish va ishlab chiqarish salohiyatini oshirishni to‘g‘ri tashkil qilish zarur deb o‘ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Указ Президента Республики Узбекистан «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы» от 28.01.2022 г. №УП-60.

2. Abdurahmonov K. Mehnat iqtisodiyoti: Nazariya va amaliyot/Darslik. Qayta ishlangan va to‘ldirilgan 3-nashri. T.: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi «Fan» nashriyoti davlat korxonasi, T.:2019 - 544 b.

3. Абдуллаев С.А., Мамбетжанов К.К., Маманазаров А.А. Природные и человеческие факторы увеличения национального богатства Узбекистана//Экономика и финансы (Узбекистан), 2020. - №3. - с.7-14.

4. G.Abdurakhmanova, Sh.Gaibnazarov, N.Shayusupova, D.Fayziyeva, B.Tursunov. (2020). Creating a system of control over compliance with decent work principles of the Republic of Uzbekistan.

International Journal of Advanced Science and Technology, 29(9s), 6401-6408. http://sersc.org/journals/index.php/IJAST/article/view/20252

5. https://mehnat.uz/oz/employees - O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi ma’lumotlari.

6. https://stat.uz/uz/ - O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika Agentligi.

AHOLI FAROVONLIGINI OSHIRISH, AHOLI BANDLIGINI TA’MINLASH VA ISHSIZLIK DARAJASINI KAMAYTIRISHDA INNOVATSION ISH BILAN BANDLIKNING AHAMIYATI

Tuxtasinova Muxayo Mirzasultonovna
Farg‘ona politexnika institute Iqtisodiyot kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada aholi bandligini ta’minlash buyicha amalga oshirilayotgan ishlarning natijalari tahlil qilingan, dolzarb vazifalar va muammolar o‘rganilgan hamda yoritib berilgan. Shuningdek, innovatsion bandlik tushunchasi yoritilib, mehnat bozorida ishsizlikni kamaytirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: aholining bandligi, aholi daromadlari, aholining mehnat va tadbirkorlik faolligi, innovatsion bandlik, qishloq mehnat bozori, меҳнат бозори, меҳнат ресурслари

Respublikamizda aholining bandligini ta’minlash, real pul daromadlari va xarid qobiliyatini oshirish, kam ta’minlangan oilalar soni va aholining daromadlari bo‘yicha farqlanish darajasini yanada kamaytirish, iqtisodiyot tarmoqlarida yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda aholining, eng avvalo, o‘rta maxsus va oliy o‘quv muassasalari